

ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Xalikova Lola Nazarovna

SamISI, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori v.b., i.f.d.

Eshqo'ziyev Adhambek Mamadali o'g'li,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ichki turizmning rivojlanish tendensiyalari va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida turizm oqimlari dinamikasi, infratuzilmaning rivojlanish darajasi hamda turistik xizmatlar hajmi kabi asosiy ko'rsatkichlar o'rganilgan. Tahlil natijalari ichki turizm iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda xizmatlar sektorining kengayishida muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada turizm sohasining mavjud muammolari aniqlanib, uni yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, milliy iqtisodiyot, turizm infratuzilmasi, iqtisodiy o'sish, xizmatlar sektori, turizm oqimlari, hududiy rivojlanish, turizm siyosati, turistik xizmatlar, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish.

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng dinamik va yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turizm nafaqat xizmatlar sektorining muhim tarkibiy qismi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, yangi ish o'rinlarini yaratadigan hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytiruvchi kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ichki turizmning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, milliy bozorni qo'llab-quvvatlash va

tashqi iqtisodiy tebranishlar ta'sirini yumshatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ichki turizm transport, savdo, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish va madaniy xizmatlar kabi ko'plab tarmoqlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan, ichki turizmning rivojlanish darajasi milliy iqtisodiyotning barqarorligi, diversifikatsiya darajasi va raqobatbardoshligini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Ichki turizm orqali iqtisodiy resurslarning hududlar kesimida qayta taqsimlanishi ta'minlanadi, bu esa iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, aholi daromadlarini oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda mazkur sohada keng ko'lamlı institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son Farmoni"¹ "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirdi. Mazkur farmon asosida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish, turistik xizmatlar sifatini oshirish hamda ichki turizmni rag'batlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni doirasida turizm sohasining huquqiy asoslari mustahkamlanib, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish va yangi turistik yo'nalishlarni shakllantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Natijada turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylanib, iqtisodiy o'sish, bandlik darajasining oshishi hamda xizmatlar sektorining kengayishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida," PF-4861-son Farmon, 2016-yil 2-dekabr. <https://lex.uz/docs/-3077025>

Adabiyotlar sharhi.

Ichki turizmning rivojlanishi va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri masalasi so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda ichki turizmning iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish, daromadlar taqsimoti hamda makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, global inqirozlar va pandemiya sharoitida ichki turizmning iqtisodiy tizimni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatidagi roli yanada ortgan. Shu bois, mazkur mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish, ularning natijalarini umumlashtirish va mavjud ilmiy bo'shliqlarni aniqlash tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Nguyen Phuc Canhning Su Dinh Thanh bilan hammualliflikdagi "Domestic tourism spending and economic vulnerability" maqolasida "ichki turizm xarajatlari mamlakat iqtisodiy zaifligini kamaytirishi empirik jihatdan asoslanadi"²; tadqiqotda ichki turizm iqtisodiy barqarorlik va shoklarga chidamlilikni oshiruvchi omil sifatida talqin qilingan. Bu maqola "Ichki turizmning rivojlanishi va milliy iqtisodiyotga ta'siri" mavzusi uchun muhim, chunki unda ichki turizm faqat xizmatlar sohasi emas, balki makroiqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi mexanizm sifatida ko'rsatiladi. Mualliflarning asosiy hissasi — ichki turizm xarajatlarini iqtisodiy zaiflik indeksi bilan bog'lab tahlil qilganidir; ilmiy bo'shliq esa tadqiqotda alohida mamlakatlar, xususan Markaziy Osiyo sharoitidagi hududiy tafovutlar chuqur ochilmaganidadir.

Doris Chenguang Wu va boshqa olimlar tomonidan yozilgan "Impact of domestic tourism on economy under COVID-19: The perspective of tourism satellite accounts" maqolasida "ichki turizmning Guangdong iqtisodiyotiga bevosita hissasi turizm sun'iy yo'ldosh hisobi usuli orqali baholangan"³; natijada ichki turizmning iqtisodiy ulushi 2019-yildagi 2,53 foizdan 2020-yilda 1,20 foizga tushgani

² N. P. Canh and S. D. Thanh, "Domestic tourism spending and economic vulnerability," *Annals of Tourism Research*, vol. 85, 2020.

³ D. C. Wu, C. Cao, W. Liu, and J. L. Chen, "Impact of domestic tourism on economy under COVID-19: The perspective of tourism satellite accounts," *Annals of Tourism Research Empirical Insights*, vol. 3, no. 2, 2022.

ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ichki turizmni milliy hisoblar tizimi bilan bog'lab, uning iqtisodiy ta'sirini aniq o'lchash zarurligini ko'rsatadi. Mualliflar ichki turizm inqiroz davrida tiklanish manbai bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi; ilmiy bo'shliq esa tadqiqot faqat bir provinsiya misolida olib borilgani va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar yetarli o'rganilmaganidir.

Zhixin Zengning Xiaojun Wang bilan hammualliflikdagi "Effects of Domestic Tourism on Urban-Rural Income Inequality: Evidence from China" maqolasida "ichki turizm shahar va qishloq aholisi daromadlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirishi isbotlangan"⁴; 10 foizlik ichki turizm daromadi o'sishi qishloq aholisi daromadini shaharnikidan tezroq oshirishi aniqlangan. Bu maqola mavzu uchun muhim, chunki ichki turizmning milliy iqtisodiyotga ta'siri faqat YAIM o'sishi emas, balki hududiy va ijtimoiy tenglik orqali ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mualliflarning hissasi — ichki turizmni daromadlar taqsimoti va qishloq xo'jaligi, xizmatlar hamda ishlab chiqarish daromadlari bilan bog'laganidadir; ilmiy bo'shliq esa turizm sifati, infratuzilma darajasi va mahalliy boshqaruv omillari yetarli chuqurlikda tahlil qilinmaganidadir.

Martahadi Mardhanining M. Shabri Abd. Majid, Abd. Jamal va Khairul Aswadi bilan hammualliflikdagi "Does Domestic Tourism Stimulate Economic Growth? Evidence from Indonesian Provincial Panel Data" maqolasida "2011–2018-yillarda Indoneziyaning 33 provinsiyasi ma'lumotlari asosida ichki turizm xarajatlari va ichki sayohatlar hududiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qilishi aniqlangan"⁵. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ichki turizmni "tourism-led growth" gipotezasi doirasida alohida iqtisodiy o'sish omili sifatida baholaydi. Mualliflar ichki turizmni rivojlantirishda manfaatdor tomonlar ishtiroki va barqaror boshqaruv zarurligini aytadi; ilmiy bo'shliq esa ichki turizm bo'yicha ma'lumotlar yetishmasligi va bu yo'nalish xalqaro turizmga nisbatan kam o'rganilganidir.

⁴ Z. Zeng and X. Wang, "Effects of Domestic Tourism on Urban-Rural Income Inequality: Evidence from China," Sustainability, vol. 13, no. 16, p. 9009, 2021.

⁵ M. Mardhani, M. S. A. Majid, A. Jamal, and K. Aswadi, "Does Domestic Tourism Stimulate Economic Growth? Evidence from Indonesian Provincial Panel Data," International Journal of Sustainable Development and Planning, vol. 19, no. 12, pp. 4891–4896, 2024.

Irada Usmanovna Akhmedjanovaning Nodira Abdukhamid qizi Khalilova bilan hammualliflikdagi “Development of Domestic Tourism in Uzbekistan: Opportunities, Problems and Prospects” maqolasida “O‘zbekistonda ichki turizm iqtisodiy o‘shish, aholining turmush darajasini yaxshilash, madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish vositasi sifatida tahlil qilingan”⁶. Ushbu maqola mavzu uchun bevosita ahamiyatli, chunki unda O‘zbekiston sharoitida qishloq turizmi, tarixiy shaharlarga sayohatlar va tabiiy rekreatsiya hududlari ichki turizmning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatiladi. Mualliflarning hissasi — ichki turizmni milliy iqtisodiyotning transport, mehmonxona, restoran, madaniy xizmatlar kabi tarmoqlari bilan bog‘lab izohlashidir; ilmiy bo‘shliq esa empirik modellashtirish va hududlar kesimida iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy baholash yetarli emasligidadir.

Zarina Nasimovna Baxriyevaning “O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda tabiiy resurslar salohiyati tushunchasi va uning iqtisodiy tizimini rivojlantirishdagi o‘rni” maqolasida “ichki turizmni rivojlantirishda tabiiy va rekreatsion resurslar, turistik salohiyat, moliyaviy resurslar hamda turistik talabning o‘rni yoritilgan”⁷. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ichki turizmni hududiy resurslar, infratuzilma, mehnat va moliyaviy salohiyat bilan bog‘liq iqtisodiy tizim sifatida talqin qiladi. Muallifning hissasi — turistik salohiyatni resurs, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy, mehnat va moliyaviy tarkibiy qismlar orqali tushuntirishidir; ilmiy bo‘shliq esa tabiiy resurslardan foydalanishning ekologik chegaralari va iqtisodiy rentabelligi bo‘yicha aniq indikatorlar yetarli ishlab chiqilmaganidadir.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ichki turizm milliy iqtisodiyotga ko‘p qirrali va sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlarda ichki turizmning iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish hamda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishdagi roli empirik jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlar ichki turizmning inqiroz davrida

⁶ I. U. Akhmedjanova and N. A. Khalilova, “Development of Domestic Tourism in Uzbekistan: Opportunities, Problems and Prospects,” *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, no. XI, pp. 79–86, 2024.

⁷ Z. N. Baxriyeva, “O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda tabiiy resurslar salohiyati tushunchasi va uning iqtisodiy tizimini rivojlantirishdagi o‘rni,” *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, no. XI, pp. 94–98, 2024.

iqtisodiy tiklanish manbai sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. O'zbekistonlik olimlar esa ichki turizmni milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida baholab, uning hududiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini yoritib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida 2017–2023-yillarga oid statistik ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu davr mamlakat turizm industriyasida muhim tarkibiy o'zgarishlar, institutsional islohotlar hamda global omillar ta'sirida yuzaga kelgan tebranishlar bilan xarakterlanadi. Xususan, turizm oqimlari dinamikasi, infratuzilmaning kengayishi va xizmatlar hajmining o'zgarishi milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi. Tahlil jarayonida chiquvchi, kiruvchi va ichki turizm ko'rsatkichlari, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari soni hamda turistik xizmatlardan foydalanuvchilar hajmi kabi asosiy indikatorlar kompleks ravishda ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv turizm sohasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash, mavjud muammolarni baholash va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi.

1-Jadval.

O'zbekiston Respublikasida Turizmga oid statistik ma'lumotlar (2017-2023)

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Chiquvchi turizm(kishi)	36045	31981	35984	6399	16179	19752	156636
Kiruvchi turizm(kishi)	167394	224796	348731	21693	44419	93825	237693
Ichki turizm(kishi)	422935	441547	532544	17664 6	522009	538938	728581

YaIM miqdori (mlrd so‘m)	356453, 8	473652, 8	594659, 6	66803 8	820536, 6	995573, 1	119216 3
Mehmonxonalar soni	816	916	1051	1156	1085	1167	1387
Jamoaviy joylashtirish vositalari obyektlari soni	1307	1400	1560	1650	1653	1877	2396
Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar soni	670	713,2	942	212,3	577,8	673,7	1157,1

Manba: Ushbu jadvaldagi ma’lumotlar “O‘zbekiston Respublikasi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy saytidan olingan, <https://www.stat.uz>”.⁸

1-jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining 2017–2023-yillardagi rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur davr mobaynida soha bosqichma-bosqich o‘shish, keskin inqiroz va tiklanish jarayonlarini boshdan kechirgan. Dastlabki yillarda, ya’ni 2017–2019-yillarda turizm ko‘rsatkichlarining izchil o‘shishi kuzatilib, ayniqsa kiruvchi turizm hajmi 167 ming kishidan 348 ming kishigacha oshgan. Ichki turizm ham shu davrda barqaror o‘shib, 422 mingdan 532 ming kishiga yetgan. Bu holat mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, transport va mehmonxona infratuzilmasining kengayishi hamda xalqaro ochiqlik siyosatining kuchayishi bilan bevosita bog‘liqdir.

⁸ <https://www.stat.uz>

2020-yilda yuzaga kelgan global pandemiya turizm sohasiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lib, deyarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha pasayish kuzatilgan. Xususan, kiruvchi turizm hajmi 21,6 ming kishigacha tushib ketgan bo'lsa, ichki turizm 176,6 ming kishiga qisqargan. Turistik xizmatlardan foydalanuvchilar soni ham keskin kamaygan. Ushbu jarayon turizmning tashqi omillarga, xususan global sog'liqni saqlash va transport tizimidagi cheklovlarga yuqori darajada bog'liqligini namoyon etadi. Shu bilan birga, mazkur davr turizm tizimini qayta ko'rib chiqish va yangi moslashuv mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi.

2021-yildan boshlab esa turizm sohasida bosqichma-bosqich tiklanish jarayoni kuzatila boshladi. Ayniqsa, ichki turizmning tez tiklanishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u pandemiya sharoitida tashqi turizm o'rnini qisman qoplash imkonini berdi. 2023-yilga kelib ichki turizm 728 ming kishiga yetib, oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa ichki turizm milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kiruvchi turizm ham tiklanib, 237 ming kishiga yetgan, bu esa xalqaro turistik oqimlarning qayta faollashayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasi mazkur davrda izchil rivojlangan. Mehmonxonalar soni 816 tadan 1387 taga oshgan bo'lsa, jamoaviy joylashtirish vositalari soni 2396 taga yetgan. Bu o'sish turizm sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining ortib borayotganini, shuningdek xizmatlar ko'lamini va sifati kengayayotganini anglatadi. Turistik firmalar tomonidan xizmat ko'rsatilganlar sonining 2023-yilda 1157 ming kishiga yetishi esa turizm biznesining tiklanib, faol rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan davrda turizm sohasi O'zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib borgan. YaIM hajmining 356 trln so'mdan 1192 trln so'mgacha oshishi fonida turizm ko'rsatkichlarining tiklanishi va kengayishi ushbu sohaning iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shayotganini tasdiqlaydi. Kelgusida turizmni yanada rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish hamda

xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim strategik yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur tarmoq milliy iqtisodiyotning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Turizm oqimlari dinamikasi, infratuzilmaning kengayishi hamda xizmatlar hajmining ortib borishi ushbu sohaning iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ichki turizmning barqaror rivojlanishi iqtisodiy tizimda muvozanatni saqlash, xizmatlar bozorini kengaytirish va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining kengayib borishi, mehmonxonalar va jamoaviy joylashtirish vositalari sonining ortishi hamda turistik xizmatlar ko‘lamining kengayishi ushbu sohada investitsion faollik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu jarayon turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish, bandlik darajasini ko‘tarish va xizmatlar sektorining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Natijada turizm sohasi milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

Biroq, amalga oshirilgan tahlillar turizm sohasida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ham ko‘rsatadi. Jumladan, sohaning tashqi omillarga sezgirligi, hududlar kesimida infratuzilmaning notekis rivojlanishi, xizmatlar sifatining ayrim hollarda yetarli darajada yuqori emasligi hamda statistik ma‘lumotlar tizimining mukammal emasligi ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar hisoblanadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish turizmni yanada rivojlantirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash va uni iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biriga aylantirish zarur. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish, ayniqsa turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda

investitsiyalarni ko‘paytirish muhimdir. Turistik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, servis madaniyatini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Takliflar.

1. Birinchidan, ichki turizmni yanada rivojlantirish va uni iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biriga aylantirish zarur. Buning uchun hududlararo turistik marshrutlarni kengaytirish, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash hamda aholining ichki sayohatlarga bo‘lgan rag‘batini oshirish lozim.

2. Ikkinchidan, turizm infratuzilmasini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, turistik salohiyati yuqori bo‘lgan, biroq yetarlicha rivojlanmagan hududlarda mehmonxonalar, rekreatsion obyektlar va xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish zarur.

3. Uchinchidan, turistik xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish maqsadida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, servis madaniyatini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozim.

4. To‘rtinchidan, turizm sohasida statistik hisob-kitob va monitoring tizimini takomillashtirish, zamonaviy analitik usullar asosida ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va ularni ochiq hamda ishonchli qilish zarur.

5. Beshinchidan, turizmni diversifikatsiya qilish, ya‘ni ekologik turizm, ziyorat turizmi, qishloq turizmi va tibbiy turizm kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali turistik xizmatlar spektrini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shirishini ta‘minlashda muhim omillardan biri bo‘lib, uni kompleks rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida,” PF-4861-son Farmon, 2016-yil 2-dekabr. <https://lex.uz/docs/-3077025>

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, “Turizm statistikasi ma’lumotlari,” Available: <https://www.stat.uz>
3. N. P. Canh and S. D. Thanh, “Domestic tourism spending and economic vulnerability,” *Annals of Tourism Research*, vol. 85, 2020. Available: <https://doi.org/10.1016/j.annals.2020.103063>
4. D. C. Wu, C. Cao, W. Liu, and J. L. Chen, “Impact of domestic tourism on economy under COVID-19: The perspective of tourism satellite accounts,” *Annals of Tourism Research Empirical Insights*, vol. 3, no. 2, 2022. Available: <https://doi.org/10.1016/j.annale.2022.100055>
5. Z. Zeng and X. Wang, “Effects of Domestic Tourism on Urban-Rural Income Inequality: Evidence from China,” *Sustainability*, vol. 13, no. 16, p. 9009, 2021. Available: <https://doi.org/10.3390/su13169009>
6. M. Mardhani, M. S. A. Majid, A. Jamal, and K. Aswadi, “Does Domestic Tourism Stimulate Economic Growth? Evidence from Indonesian Provincial Panel Data,” *International Journal of Sustainable Development and Planning*, vol. 19, no. 12, pp. 4891–4896, 2024. Available: <https://doi.org/10.18280/ijstdp.191236>
7. I. U. Akhmedjanova and N. A. Khalilova, “Development of Domestic Tourism in Uzbekistan: Opportunities, Problems and Prospects,” *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, no. XI, pp. 79–86, 2024.
8. Z. N. Baxriyeva, “O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda tabiiy resurslar salohiyati tushunchasi va uning iqtisodiy tizimini rivojlantirishdagi o‘rni,” *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, no. XI, pp. 94–98, 2024.